



"O'zbekimiyosanoat" AJ tashkiliy tuzilmasi

("O'zbekimiyosanoat" AJ yagona aksiyadorining 2023-yil 18-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan)

"O'zbekimiyosanoat" AJ		
"Navoiyazot" AJ	"Maksam-Chirchik" AJ	"Farg'onaazot" AJ
"Birinchii rezinotexnika zavodi" MCHJ	"Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ	"SAMARKAND-NPK" MCHJ QK
"Qo'ng'iro't soda zavodi" MCHJ QK	"Kimyotrans-Logistik" MCHJ	"Kimyotrans" MCHJ QK
"Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti" MCHJ	"Ammiak va karbamid zavodini qurish direksiyasi" MCHJ	"CHEMICAL COAL" MCHJ
"Navoiy Chemical Cluster" MCHJ QK	"Chirchiq kimyo-industrial texnoparki direksiyasi" MCHJ	"Kimyo sanoati uchun innovatsion ilmiy- ishlab chiqarish va ta'lim klasteri direksiyasi" MCHJ
"EASTERN UNIPROFF" MCHJ QK	"Winchemical" MCHJ QK	"Navoiy kimyo texnoparki direksiyasi" MCHJ
"Ammofos-Maksam" AJ	"Dexqonobod kaliy zavodi" AJ	"O'zbekimiyosanoat" MCHJ
"O'zbekimiyosanoatloyiha" AJ	"Krassvetmet" MCHJ QK	"KRICT Direksiyasi" MCHJ
"Toshkent shahri RKTU filiali qurilishi direksiyasi" MCHJ	"Central Asia Fertilizers" MCHJ QK	"Farg'ona nitrotsellyuloza zavodi" MCHJ
"Hamkor Kimyoservis" MCHJ	"Farg'ona kimyo texnoparki direksiyasi" MCHJ	"Qoraqalpog'iston kimyo texnoparki direksiyasi" MCHJ

Tarmoqdagi korxona va tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni mazkur saytning [Korxona va tashkilotlar](#) qismidan olishingiz mumkin.

Yig'ma axborot-tahlil departamenti

Bo'linma rahbari: Soxibov Botir Gofurovich (+998781400180)

Boshqarma faoliyati O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, Jamiyat boshqaruvi qarorlari, shuningdek, buyruqlari, ko'rsatmalari, farmoyishlari va yig'ilishlar qarorlarining ijrosini sifatli tashkil etish; Jamiyat ijro apparati va tarmoq korxonalarida direktiv hujjatlar ijrosini tashkil etish, ijro intizomi talablariga rioya etish, shuningdek, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish, muammoli masalalarni hal qilish va rejalashtirilgan natijalarga erishish masalalarini muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Korporativ munosabatlar boshqarmasi

Bo'linma rahbari: Raximov Jamoliddin Kamolitdinovich (+998781407498)

Boshqarma faoliyati Korporativ boshqaruv va qimmatli qog'ozlar masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, Strategik islohotlar agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi Kapital bozorini rivojlantirish departamentining buyruq va ko'rsatmalari, Jamiyatning boshqaruv organlari qarorlari, buyruq va topshiriqlari ijrosini ta'minlash.

Korporativ boshqaruv va qimmatli qog'ozlar masalalari bilan bog'liq ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda tegishli vazirlik va tashkilotlarga tayyorlab berilishini ta'minlash.

Jamiyat tomonidan emitent sifatida korporativ ma'lumotlar yagona portalida va boshqa ommaviy axborot vositalarida joylashtirilishi majburiy bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilinishini ta'minlash.

Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislarining o'tkazilishini tashkil etish va majlis kun tartibini shakllantirish bo'yicha tayyorgarlik ko'rish.

Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishlari o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish va umumiy yig'ilish bayonnomalari loyihalarini tayyorlashga qaratilgan

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi

Bo'linma rahbari: Vakant (+998781400126)

Boshqarma faoliyati Jamiyat, uning tarmoq korxonalari va tashkilotlarida sohaga oid xalqaro standart talablariga javob beruvchi Korrupsiyaga qarshi "komplayens-nazorat" tuzilmasini joriy etish, Jamiyatda korrupsion holatlarini barvaqt aniqlash, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi preventiv choralarni ko'rish. Jamiyat xodimlari orasida korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongini oshirish. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki idoraviy hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlashga qaratilgan.

Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi

Bo'linma rahbari: Aripov Voxid Valiyevich (+998781407412)

Boshqarma faoliyati Sohaning kadrlar siyosati va strategiyasini ishlab chiqish; Soha korxonalarini rahbarlar, mutaxassislar, talab qilinadigan kasb egalari, mutaxassisliklar va malaka yo'nalishlari bo'yicha zarur kadrlar bilan ta'minlash bilan bog'liq masalalarni muvofiqlashtirish;

Kadrlarni tanlash, joylashtirish va tayyorlash; xodimlarning ishbilarmonlik va axloqiy sifatlarini ularning amaliy faoliyati jarayonida o'rganish;

Kadrlarni tayyorlash hamda malakasini oshirishning barcha turlarini tashkil etish va amalga oshirish; kadrlar hisobini yuritish; boshqarma faoliyati bilan bog'liq masalalarda jamiyat xodimlarining huquqlari, imtiyozlari va kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan

Yuridik boshqarma

Bo'linma rahbari: Ibadullayev Timur Anvarovich (+998781407488)

Boshqarma faoliyati Jamiyatning huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish;

Jamiyat tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish; Jamiyatning qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida uning tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish; Jamiyatning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini, shu jumladan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etishga qaratilgan.

Matbuot xizmati

Bo'linma rahbari: To'laganov Hojiakbar Taxirdjanovich (+998781407426)

Boshqarma faoliyati tashkilotning rasmiy veb-sayti, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, media-turlar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;

jamiyatning ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o'rganish;

axborot siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda Agentlik bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan.

Texnik jihatdan tartibga solish va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish departamenti

Bo'linma rahbari: Ayxodjayev Rustam Ilyasovich (+998781407463)

Boshqarma faoliyati sanoat korxonalarining barqaror ishlashini ta'minlash, mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish prognozining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirish;

sohaga zamonaviy yuqori texnologik uskunalarni keng joriy etish, yuqori qo'shimcha qiymat va kam energiya sarfi bilan talab qilinadigan yuqori sifatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash;

tarmoq korxonalarining barqaror ishlashiga, respublika qishloq xo'jaligining e'lon qilingan hajmlari bo'yicha mineral o'g'itlar va boshqa turdagi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

soha korxonalarida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish dasturini tuzish va bajarilishini monitoring qilish ishlarini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish;

korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, korxonalarning barqaror va avariyasiz ishlashini ta'minlash uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish asosida kimyo sanoatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etishga qaratilgan.

Mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish bo'limi

Bo'linma rahbari: Salomov Abduxomid Ruziyevich (+998781407434)

Boshqarma faoliyati Respublika import hajmini va nomenklaturasini chuqur tahlil qilish asosida mavjud resurslarni hisobga olgan holda, kimyo sanoati mahsulotlarini mahalliyashtirishning amaldagi va istiqbolli dasturlarini shakllantirish;

Ilmiy izlanishlar natijalari va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni mahalliy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish orqali sanoat kooperatsiyasi va mahalliy xomashyo asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va iqtisodiyot tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish; Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan kimyo sanoatini rivojlantirishning qisqa, o'rta va uzoq muddatli (biznes-reja) dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish; kimyo sanoatini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshiriladigan ilmiy-texnik tadqiqotlarning qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etishga qaratilgan.

Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti

Bo'linma rahbari: Abduraxmanova Rano Abdul-Axatovna (+998781407418)

Boshqarma faoliyati jamiyat korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, Jamiyatning strategik maqsadlari asosida samaradorlikning baholash mezonlarini joriy etish, shuningdek, Jamiyat ijro apparatining tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda tarmoq korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritish;

Kompleks hisob-kitoblar, kutilayotgan iqtisodiy maqsadli natijalar bo'yicha kimyo sanoatini rivojlantirish uchun qisqa muddatli (biznes-reja), o'rta va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish; tarmoq korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni, ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx darajasiga ta'sir etuvchi omillarni asosli tahlil qilishga qaratilgan.

Moliya, g'aznachilik operatsiyalari va xaridlar departamenti

Bo'linma rahbari: Namozov Farid Ozodovich (+998781407484)

Boshqarma faoliyati - jamiyat tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish;

Jamiyat boshqaruviga taqdim etgan holda jamiyat tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining oy, chorak va umuman yil yakunlari bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlarini to'plash, tizimlashtirish, o'rganish va tahlil qilish;

o'z vakolat doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahliliy qayta ishlash, Jamiyat boshqaruvi, boshqaruv organlari, shuningdek, vakolatli vazirlik va idoralar uchun tegishli ma'lumotnomalar, tahliliy materiallar va takliflar tayyorlash;

Jamiyat tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari, debitorlik va kreditorlik qarzlari, ularni to'lash bo'yicha ko'rilyotgan chora-tadbirlar samaradorligini monitoring qilish; korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlari, o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan jamlanma prognozlarni hamda yillik prognozlarni ishlab chiqish;

"O'zkimyosanoat" AJ tomonidan belgilab qo'yilgan xaridlarning ochiq va shaffof o'tkazilishi, tarmoq korxonalari tomonidan qonunchilik talablariga rioya etilishiga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda;

Jamiyat korxonalari va tashkilotlarini moliyaviy-iqtisodiy sog'lomlashtirish dasturlarini (yo'l xaritalari) ishlab chiqishga qaratilgan

Buxgalteriya va korporativ hisoboti boshqarmasi

Bo'linma rahbari: Babayev Bobur Baxrullayevich (+998781407470)

Boshqarma faoliyati Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini to'liq, uzluksiz, ishonchli moliyaviy, soliq va boshqaruv hisobini yuritish.

Buxgalteriya hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish.

Kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya, soliq va boshqaruv hisobotlarini shakllantirish va topshirishga qaratilgan

Investitsiya faoliyatini istiqbolli rivojlantirish departamenti

Bo'linma rahbari: Mamutov Paraxatdin Shamshetdinovich (+998781407474)

Kimyo tarmog'i ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni ko'zda tutuvchi istiqbolli investitsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish;

Mahalliy mineral xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash orqali yangi turdagi kimyo va gaz-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, sohaga mahalliy va xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish;

Investorlar va loyiha tashkilotlari, texnologiyalar pudratchi-litsenziarlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Kimyoviy texnologik ilmiy-ishlab chiqarish klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish;

Investitsiya dasturiga kiritilgan kimyo sanoati korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish tarmoq jadvallarini ishlab chiqish;

Investitsiya loyihalarini o'z vaqtida va muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar, "yo'l xaritalari", harakatlar rejasini ishlab chiqish, ularni yuqori turuvchi organlar bilan kelishish va tasdiqlatish.

Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligini rivojlantirish boshqarmasi

Bo'linma rahbari: Axmedov Azizbek Muxammadiyevich (+998781407477)

Boshqarma faoliyati Jamiyatning axborot texnologiyalari, kommunikatsiyalari va axborot xavfsizligi sohasidagi ishlarni amalga oshirish, rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Ichki savdoni muvofiqlashtirish bo'limi

Bo'linma rahbari: Abdullayev G'ayrat Nosir o'g'li (+998781407430)

Boshqarma faoliyati Kimyo mahsulotlari, jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga bozor mexanizmi va munosabatlarini keng joriy etish;

respublika ichidagi iste'molchilarning kimyo sanoati mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'rganish va shu asosda tarmoq korxonalarini rivojlantirish istiqbollari belgilash; tarmoq korxonalari tomonidan ishlab

chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki bozorda sotish ishlarini muvofiqlashtirish; kimyo sanoatini rivojlantirishning o'rta va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, respublika qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining mineral o'g'itlar va boshqa turdagi kimyoviy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash va korxonalarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan

Raqamli transformatsiya loyihalarini boshqarish bo'limi

Bo'linma rahbari: Azimov Qobil Odilovich (+998781400180)

Boshqarma faoliyati jamiyat amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha vakolat markazlarini yaratishda ishtirok etish, olingan bilimlarni uzatish;

korxonalar tomonidan har bir tashabbusli loyihalarni amalga oshirish imkoniyati va maqsadga muvofiqligini tahlil qilish;

loyiha portfelini rejalashtirish, shakllantirish va monitoring qilish;

korxonalarning tarkibiy bo'linmalarida amalga oshirilayotgan loyiha tashabbuslarini hisobga olish, ro'yxatga olish, tashkiliy ta'minlash, rejalashtirish, nazorat qilish va hisobot berishda uslubiy boshqarish va yordam berish;

Loyihaviy faoliyat bo'yicha korxonalar va ularning tarkibiy bo'linmalarida avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

loyihalarning yig'ma hisobotlarini tuzish;

har bir loyiha guruhi va loyiha guruhlari uchun belgilangan ko'rsatkichlarga erishish tahlili asosida korxona loyihalarini boshqarish samaradorligini nazorat qilish tizimini shakllantirish;

korxona kollegial organlarini har bir aniq loyiha tashabbusini, loyiha pasportini, loyihalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan yagona hujjatlar paketlari bilan ta'minlashni tashkil etish;

loyiha ishtirokchilarini rag'batlantirish tizimini joriy etish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

Ma'muriy xo'jalik boshqarmasi

Bo'linma rahbari: Xoshimov Abror Norbutayevich (+998781407466)

Boshqarma faoliyati Jamiyatning ijro etuvchi apparati tarkibiy bo'linmalari joylashgan binolar va binolami sanoat sanitariyasi, yong'indan himoya qilish qoidalari, qoidalariga muvofiq texnik xizmat ko'rsatishni, shuningdek, jihozlarning (liftlar, yoritgichlarning yaroqliligi ustidan nazoratni ta'minlaydi, isitish tizimlari, shamollatish va boshqalar) bir maromda ishlashini nazorat qilish.

Asosiy vositalarni (binolami, suv ta'minoti tizimlarini, havo kanallarini va boshqa inshootlarni) joriy va kapital ta'mirlash rejalarini ishlab chiqadi, iqtisodiy xarajatlar smetasini tayyorlashda qatnashadi.

Binolami ta'mirlashni tashkil qiladi, ta'mirlash ishlarining sifatini nazorat qiladi.

Jamiyat boshqaruv apparati tarkibiy bo'linmalarini mebel, kerakli jihozlar, muhandislik va boshqaruv mehnatini mexanizatsiyalash bilan ta'minlaydi, ularning xavfsizligi va o'z vaqtida ta'mirlanishini nazorat qiladi.

Xizmatlar ko'rsatish, ish yuritish materiallarini, zarur maishiy materiallar, asbob-uskunalar va inventarlarni qabul qilish hamda saqlash bo'yicha shartnomalar tuzish uchun zarur hujjatlarni tayyorlashni tashkil qiladi,

jamiyat departamenti, boshqarma va bo'limlarni kerakli inventarlar bilan ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkillashtiradi.

Hududni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va tozalash, bino fasadlarini, nazorat punktlarini bayramona bezash bo'yicha ishlarni tashkillashtiradi.

Uchrashuvlar, konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlar uchun iqtisodiy xizmatlarni tashkil qiladi.

Yong'inga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshiradi va yong'inga qarshi vositalarning soz holatda bodishini ta'minlaydi.

o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun boshqarma quyidagi funksiyalarni bajaradi:

o'z faoliyati doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahliliy qayta ishlash, Jamiyat boshqaruvi, boshqaruv organlari, shuningdek, vakolatli vazirlik va idoralar, Vazirlar Mahkamasi uchun tegishli ma'lumotnoma, tahliliy materiallar va takliflar tayyorlaydi